



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGINING YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI

20 25 yil “07 ” yanvar

07/09-2-qr - sonli

Toshkent sh.

## “Yo‘lqurilish” aksiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a‘zolari jalb etish to‘g‘risida

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58- va 59-moddalari, “Yo‘lqurilish” AJning (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) 2024-yil 13-dekabrda 01-06/252-son murojaatiga asosan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi:**

### 1. Quyidagilar:

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 76<sup>1</sup>-moddasiga muvofiq, aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag‘iga kiritilgan, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo‘lgan jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga **kamida bir nafar mustaqil a‘zo kiritilishi kerakligi;**

“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga muvofiq, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashlari tarkibiga mustaqil a‘zolari jalb etish choralarini ko‘rishi;

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan 2021 – 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish va isloh qilish strategiyasiga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a‘zolari jalb etish bunda, davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibidagi mustaqil a‘zolar sonini 2025-yilga qadar **30 foizgacha yetkazish** belgilanganligi;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-sentabrdagi 02/1-1934-son ko‘rsatmasi bilan jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga xorijiy tajribaga ega mustaqil a‘zolar jalb etiladigan korxonalar ro‘yxatiga kiritilganligi;

Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga xorijiy tajribaga ega mustaqil a‘zolari jalb etish bo‘yicha **“Strikitsa Consulting” Ltd.** konsalting kompaniyasi (Buyuk Britaniya) bilan birgalikda nomzodlar tanlab olinganligi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 28-oktabrdagi 02/09-3-21-17/1309XDFU-son xati bilan xalqaro tajribaga ega bo'lgan Ozgur Orhon (Turkiya/London) va Gainulla Tazhiyev (Qozog'iston/Ostona) nomzodlarini jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zo sifatida saylash bo'yicha ko'rsatma yuborilganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Jamiyat kuzatuv kengashining amaldagi tarkibi a'zolari (*A. Miraliyev, T. Samandarov, Sh. Nazarov, L. Umurzakov, Sh. Sofarov*) vakolatlari muddatidan oldin tugatilsin.

3. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga quyidagilar 3 (uch) yil muddatga saylansin:

- |   |  |
|---|--|
| 1. <b>Miraliyev</b><br>Alisher Erkinovich   | - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori o'rinbosari; |
| 2. <b>Nazarov</b><br>Shuxrat Baxtiyorovich  | - Avtomobil yo'llari qo'mitasi raisning birinchi o'rinbosari;    |
| 3. <b>Samandarov</b><br>Tal'at Yuldashevich | - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi boshqarma boshlig'i;   |
| 4. <b>Sofarov</b><br>Shuhrat Uralovich      | - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi boshqarma boshlig'i;   |
| 5. <b>Gainulla Tazhiyev</b>                 | mustaqil a'zo.   |

4. Jamiyat boshqaruv raisi (Erniyazov):

jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini yaxshilash choralari ko'rsin;

jamiyat kuzatuv kengashi bilan birgalikda kuzatuv kengashi tarkibiga yana bir nafar mustaqil a'zo jalb etish bo'yicha yagona aksiyadorga takliflar kiritilishini ta'minlasin

5. Mazkur qaror ijrosi ta'minlanishini nazorat qilish direktorning birinchi o'rinbosari N. Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A.Ortikov